

MAVZU. KORREKSIYA VA KORREKTSION METODIKALAR

1. [B – 1 ball] Psixologik korreksiya nima?

A) Shaxsdagi ijobiy sifatlarni kamaytirish

B) Psixik holatni faqat baholash

C) Psixik rivojlanishdagi nomuvofiqliklarni yumshatish va to'g'rilash jarayoni

D) Nazorat faoliyati

Manba: Andreeva G.M., 2018; Lüsina L.M., 2020

2. [B – 1 ball] “Korreksiya” atamasi qaysi tildan olingan?

A) Yunoncha

B) Lotincha

C) Arabcha

D) Inglizcha

Manba: Nematov D.A., 2021

3. [B – 1 ball] O'yin terapiyasi nimaga asoslanadi?

A) O'yin orqali ichki muammolarni bartaraf etish

B) Ma'ruza orqali ta'sir

C) Jazolash usuli

D) Kuzatuv

Manba: Nematov D.A., 2021; Ruzieva N.S., 2023

4. [Q – 2 ball] 6 yoshli bola o'ziga ishonmaydi va tez-tez yig'laydi. Psixolog yordam bermoqda. Bu qaysi jarayon?

A) Nazorat

B) Psixologik korrektsiya

C) Diagnostika

D) Kuzatuv

Manba: Lüsina L.M., 2020; Xonkeldiyeva N.A., 2022

5. [Q – 2 ball] Salbiy xulq-atvorni ijobiy tomonga o'zgartirishga qaratilgan ishlar nima deb ataladi?

A) Profilaktika

B) Korreksiya

C) Motivatsiya

D) Monitoring

Manba: Andreeva G.M., 2018

6. [Q – 2 ball] Psixolog bolaning yashirin his-tuyg'ularini yuzaga chiqarishga harakat qilmoqda. Bu qaysi yo'nalishga kiradi?

- A) Kognitiv
- B) Emotsional**
- C) Jismoniy
- D) Ma'naviy

Manba: Ruzieva N.S., 2023

7. [Q – 2 ball] Diqqat va xotirani rivojlantirish uchun qaysi metod qo'llanadi?

- A) Kognitiv-trening**
- B) Relaksatsiya
- C) Suhbat
- D) Rasm chizish

Manba: Andreeva G.M., 2018

8. [Q – 2 ball] Stressni kamaytirishga qaratilgan mashqlar qanday nomlanadi?

- A) Relaksatsiya**
- B) Monitoring
- C) Intervyu
- D) Diagnostika

Manba: Ruzieva N.S., 2023

9. [M – 3 ball] Vaziyat:

5 yoshli bola tengdoshlari bilan o'ynamaydi, doim yolg'iz. Nima uchun unga korreksion yordam zarur?

To'g'ri javob:

Chunki maktabgacha davrda ijtimoiy va emotsional rivojlanish shakllanadi, korreksiya bola moslashuviga yordam beradi.

Manba: Lüsina L.M., 2020; Nematov D.A., 2021

10. [M – 3 ball] Agar korreksion ishlar olib borilmasa, qanday oqibatlar bo'lishi mumkin? (2 ta javobni belgilang)

- A) Muammolar chuqurlashadi
- B) Rivojlanish sekinlashadi
- C) Ishonch ortadi
- D) Ijtimoiy faollik oshadi

Manba: Andreeva G.M., 2018